

DJAFAROV Bexzod

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Eron-afg'on filologiyasi kafedrası o'q'ituvchisi*

ARIFDJANOV Zokir

*O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
O'zbek tili va mumtoz sharq adabiyoti kafedrası
o'q'ituvchisi*

FORS TILIDAGI O'ZLASHMALAR HAQIDA

О ЗАИМСТВОВАНИЯХ В ПЕРСИДСКОМ ЯЗЫКЕ

ABOUT BORROWINGS IN PERSIAN

Annotatsiya. O'zlashma mavzusi tilshunoslikda keng o'rganiladigan mavzulardan sanaladi. Fors tili lug'at tarkibida ham ko'plab o'zlashma leksik birliklarni uchratish mumkin. Bu o'zlashmalar fors tiliga bir qancha tillardan kirgan. Ularning hozirgi kundagi turi, soni va semantik xususiyatlari qiziqarlidir. Ushbu maqolada fors tilidagi o'zlashmalar muxtasar yoritilgan.

Tayanch iboralar. o'zlashma, leksik birlik, fonetika, kalkalash, bilingvizim, purizm.

Аннотация: Тема заимствований одна из наиболее широко изучаемых тем в языкознании. В персидском словаре много заимствований. Эти заимствования были внедрены в персидский язык из нескольких языков. Их текущий тип, количество и семантические особенности интересны. В этой статье дается краткий обзор заимствований в персидском языке.

Опорные слова и понятия: заимствование, лексическая единица, фонетика, калька, двуязычие, пуризм.

Annotation: The subject of loanwords one of the most widely studied topics in linguistics. There are many loanwords in the Persian vocabulary. These loanwords came into Persian from several languages. Their current type, number, and semantic features are interesting. This article gives a brief overview on loanwords in Persian language.

Key words: borrowing, lexical unit, phonetic, calque, bilingualism, purism.

KIRISH

Har qanday tildagi barcha leksik birliklar uning lug'at boyligini tashkil etadi. Lug'at boyligi esa ichki va tashqi manbalar asosida boyib boradi. Ichki manbaga so'z yasalishi yoki shevalardan so'z olinishi kirsa, tashqi manbaga so'z o'zlashtirish kiradi. Bular tilning lug'at sathining o'z qatlami va o'zlashma qatlami sanaladi.

Ko'pgina tillarning lug'at sathida o'zlashma qatlam mavjud va ular turli sabablarga ko'ra boshqa tillardan o'zlashtirilgan. So'zlarni o'zlashtirish - bu turli til jamoalari o'rtasidagi munosabatlar bilan chambarchas bog'liq, keng tarqalgan va muqarrar hodisadir [1]. Ayniqsa, hozirgi globallashuv davrida o'zlashmalarning kirib kelishi anchagina kuchaygan.

Tilning lug'at tarkibining rivoji ma'lum qonuniyatlarga asoslanadi. Lug'at tarkibida muayyan tarixiy davrlar o'tishi bilan o'ziga xos ma'lum o'zgarishlar yuz berishi mumkin. Bunday o'zgarishlar ma'lum ichki qonuniyat, tashqi kuchlar ta'sirida, obyektiv ravishda, ma'lum mezonlar doirasida yuz beradi. Tilga boshqa tillardan so'z qabul qilinishi ham shunday. Til o'zida vositalar, imkoniyatlar bo'lgan holda boshqa, o'zga tildan so'z olmaydi. Qabul qilinuvchi so'z ma'lum, biror yangi tushuncha anglatasa, yangi informatsiya tashisa yoki u yoki bu semantik yukka ega bo'lsagina tilga kirishi mumkin [2:18].

Til ijtimoiy hodisa ekanligini inobatga olsak, u doimo o'zgarib, rivojlanib va takomillashib boradi. Uning tarkibida yangilanishlar kuzatiladi, keraksiz va ortiqcha so'zlar, iboralar, terminlar vaqt o'tib tilning leksik tarkibidan chiqib ketadi. Shu boisdan ham, leksikologiya bilan shug'ullanuvchi olimlar hal etilmagan muammolarning yechimini topish bilan band bo'ladilar va bu jarayon hech qachon to'xtab qolmaydi. O'zlashmalar ham ana shu tildagi o'zgarishlarning in'ikosidir, ular orqali tilning taraqqiyot bosqichlari, boshqa tillar bilan aloqalari, undagi o'zgarishlar haqida ma'lum darajada xabardor bo'lamiz.

O'zlashmalar bevosita so'z o'zlashtirish hodisasi bilan birga o'rganiladi. Xususan, "O'zbek tili leksikologiyasi" kitobida tilshunoslar L.P. Krisin, A.V. Kalinin, M.I. Fomina, V.V. Akulenko, N. Sharopovning ishlariga murojaat qilingan holda so'z o'zlashtirishga quyidagicha fikr bildiriladi: "Bir tildan ikkinchi tilga til elementlarining qabul qilinishi, o'tishi

o'zlashtirish deb yuritiladi. O'zlashtirish tufayli bir tildan ikkinchisiga o'tgan til elementlari *o'zlashmalar* deb yuritiladi. O'zlashmalar tilning qaysi yarusiga tegishligiga, struktura elementi ekanligiga ko'ra, *o'zlashma so'zlar* yoki *leksik o'zlashmalar*, *fonetik o'zlashmalar*, *o'zlashma morfemalar* deb yuritiladi" [2:83]. M.D. Stepanova va I.I. Chernishevalar so'z o'zlashtirish deb, chet so'zlarning tillarga kirib kelishi (jarayoni), ularning o'zlashish natijasi va ularning umumiy majmuini tushinadilar" [3:18].

O'zlashmalarining til sistemasiga singib ketishi ma'lum sharoit va xususiyatlarga bog'liq. "O'zbek tili leksikologiyasi"da quyidagi sharoitlar muhim deb beriladi:

1) o'zlashma so'z uni qabul qilgan tilning praktik yozuv xususiyatlariga moslashgan bo'lishi;

2) chet so'z o'zlashtiruvchi til grammatik klasslari, kategoriyalariga mos kelishi;

3) so'z uni qabul qilgan tilda fonetik qayta shakllanishi;

4) chet so'z uni qabul qiluvchi tilga grammatik singishi;

5) chet so'z uni qabul qiluvchi til so'z yasash sistemasida aktiv ishtirok etishi;

6) chet so'z uni qabul qilgan tilga semantik jihatdan singishi:

a) o'zlashma so'z ma'nosi aniq bo'lishi;

b) o'zlashma so'z ma'nosi uni qabul qilgan tilda differensiyatsiya qilingan bo'lishi;

7) chet so'z uni qabul qilgan tilda uzluksiz ishlatilishi kerak [2:85].

Bu yuqoridagi keltirilgan xususiyatlar borasida tilshunoslarning fikrlari deyarli bir xil, ya'ni o'zlashmalarining o'zlashayotgan tilga qabul qilinib unda mustahkam o'rnatilib, singib ketishi uchun qo'yiladigan talablar barcha tillarda o'xshash deb ta'kidlanadi.

"Словарь-справочник лингвистических терминов"da chet el so'zlariga quyidagi ta'rif berilgan: "Chet el so'zlari – bu boshqa tillardan olingan so'zlar. O'zlashish – bu boshqa xalqlar bilan iqtisodiy, siyosiy, madaniy aloqalarni o'rnatishning tabiiy natijasidir" [4].

"Лингвистический энциклопедический словарь"da ushbu tushunchaga quyidagicha ta'rif berilgan: "O'zlashish – bu lingvistik aloqalar natijasida bir tildan ikkinchisiga o'tkazilgan chet tilining elementi (so'z, morfema, sintaktik tuzilish va boshqalar), shuningdek, bitta til elementlarining boshqa tilga o'tish jarayonidir" [4].

Yana bir fikr bor: "O'zlashma so'zlar o'zlashgan til tizimiga moslashib boradi va ko'pincha shu bilan o'zlashtiriladi, chunki chet tilidagi kelib chiqishi bu tilda so'zlashuvchilar tomonidan sezilmaydi va faqat etimologik tahlil yordamida aniqlanadi. O'zlashmalar esa o'zlarining chet tilidan kelib chiqqan izlarini asl so'zlarga begona bo'lgan tovush, imlo, grammatik va semantik xususiyatlar shaklida saqlaydi" [5].

Odatda, o'zlashtirish har doim tilning haqiqiy ehtiyojidan ko'proq narsani anglatadi. Bunda til notanish narsa va tushunchalarni ifodalash uchun qo'llaniladi. O'zlashmalar noma'lum narsa yoki madaniy hodisaga nom berish uchun kerak bo'ladi va bu so'z qabul qiluvchi tilidagi leksik bo'shliqlarni to'ldiradi [6].

ASOSIY QISM

tehc ibak igadrallit aqhsob mah adilit sroF
adtado ralz'os uB .rob mah ralz'os nagnilo nadralit
izray ey-āh-ejāv (واژه های دخیل), *lixad ey-āh-ejāv*
ilaqro iralnimret (وام واژه) *ejāvmāv* (واژه های فرضی),
nonuy gn'os nadralaeqov yixirat ilruT .adqomlireb
nadrallit aqhsob av sur ,zilgni ,zusnarf ,yikrut ,bara
mah agilit srof nalib ihsit'o tqav ralz'os balp'ok
ralamhsalz'o igadilit sroF .[7] naglo apot l'oy
ihsilitalhsi av irodqim ralamhsalz'o yibara adisaro
inralamhsalz'o nadlit uB .ihckatey qoltum naditahij
hsitarhcu adiraska gniniralmukrut z'os igadilit srof
nomlusum gninilit bara ibabas gninuB .nikmum
nalasaM .ridigilnake lit ilmaqar ihcnirib adimalo
yimli inralkilrib kiskel yibara yiksdorogleB .A.N
ase vokriJ .I.L .[8] ahcagziof 08-07 adralstket
ihsil'ob ahcagziof 08-04 adiralaloqam atezag
avokinnihcvO .K.I .[9] idahsaldik'at bed nikmum
pobammo-yimli ,yimli inralamhsalz'o yibara ase
ziof 1,03 adakišttilbup av toubtam ,adralstket
adtayir'ehs ,ziof 5.91 adralrasa yirsan-yiidab
,kedgninuhs ,inihsite likhsat inziof 8,51 ahcatr'o
inziof 8,4 inralmziaporvey adrallanruj av atezag u
.[01] idat'o bitya mah inigilnikmum ihsite likhsat

O'tmishda mintaqaning etakchi tillaridan biri bo'lgan zamonaviy fors tili ham chet tillardan so'z o'zlashish muammosiga duch kelmoqda, ayniqsa she'riyat va tarix sohasida. Hozirda Eronda fors tilining mavqeini oshirish, dunyoning xalqaro tillaridan biri darajasiga erishish uchun muayyan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Mamlakatda 70 yil davomida antik davrdan to hozirgi kungacha lug'atlar va lingvistik manbalarni o'rganish va

tiklash ustida ish olib borilmoqda, til arab va G'arbiy Yevropa o'zlashmalaridan tozalanmoqda. 1933-yildan buyon mamlakatda "Fors tili va adabiyoti akademiyasi" ma'lum uzilishlar bilan faoliyat ko'rsatmoqda. Akademiya faoliyatining so'nggi davri 1991-yilda boshlangan. 1997-yilda Akademiya tomonidan "So'z tanlash tamoyillari va qoidalari" ishlab chiqilgan va tasdiqlangan bo'lib, unda fors tilidagi so'zlarni chet eldan olingan o'zlashmalar o'rniga tanlash tamoyillari belgilangan [11].

Garchi akademiya ancha faol bo'lsa ham, hozirgi kunda fors tilida ingliz tilidan o'zlashmalar ko'payib bormoqda. Inglizcha so'zlar fors tiliga kirib kelayotganligi ajablanarli jarayon emas. Bu jarayon Til akademiyasi kabi rasmiy muassasalar tomonidan uni jilovlashga qaratilgan doimiy olib borilayotgan sa'y-harakatlarga qaramay, oqim to'xtamayabdi. Ingliz tilining fors tiliga ta'siri XX asr o'rtalariga to'g'ri keladi. Biroq, u so'nggi o'n yilliklarda jadal rivojlandi, globallashuv tufayli, yangi texnologiyalar (internet, informatika), shuningdek, pop-madaniyat (videolar, filmlar, musiqa) orqali ham kirib keldi. Akademiya xorijiy so'zlarning kirib kelishiga qarshi kurashadi. U 1911 yilda fors tilini "himoya qilish" uchun tashkil etilgan. Akademiyaning asosiy faoliyati xorijiy umumiy yoki texnik atamalar uchun rasmiy forscha ekvivalentlarni yaratish va tasdiqlashdan iborat. Biroq, bu tashkilot tomonidan yaratilgan ko'plab yangi so'zlar fors tilida so'zlashuvchilarning e'tiborini jalb qila olmadi [12]. Eronlik Fotima Aziz Muhammadiy fors tilidagi o'zlashmalarni quyidagi turlarga ajratgan [13]:

Fonemalar o'zlashishi. Bu turdagi o'zlashma tilda kam uchraydi. Asosan bilingvizm sharoitida sodir bo'ladi.

So'zlar o'zlashishi. O'zlashmalar orasida eng ko'p tarqalgan leksik birliklar bu so'zlardir. O'zlashma so'zlar fors tilida yetarlicha va bu borada arabiy so'zlar eng katta qismini tashkil etadi. Masalan:

harakat	harakat	حرکت	kitob	ketāb	کتاب
yong'in	hariy	حریق	daftar	daftar	دفتر
parti-	hezb	حزب	madra-	madrase	مدرسه
ya			sa		
huku-	hoku-	حکومت	o'qitu-	modar-	مدرس
mat	mat		vchi	res	

Ammo fors tilining o'zlashma qatlami so'nggi yillarda ingliz tilidan o'zlashmalar bilan boyimoqda. Ko'plab inglizcha so'zlar fors tili lug'at tarkibidan joy olmoqdaki, aksari o'zbek tiliga begona emas:

onlayn	ānlāyn	آنلاین	futbolka	tišert	تی شرت
konvert	pāket	پاکت	jamoa	tim	تیم
pochta	post	پست	super-	super-	سوپر
			market	mārket	مارکت
park	pārkh	پارک	klip	kelip	کلیپ

Shuningdek, turkiy, rus, fransuz va boshqa tillardan ham o'zlashma so'zlar mavjud:

tram-	terām-	تراموا	tarelka	bošyāb	بشقاب
vay	vā				
t o r -	tormoz	ترمز	qamchi	γamči	قمچی
moz					
r a h -	mersi	مرسی	ramka	γāb	قاب
mat					
m a n -	āдрес	آدرس	quti	γuti	قوטי
zil					

Grammatik o'zlashuv. O'zlashuvning bu turida biror bir tildan o'sha tilning grammatik kategoriyasiga mansub bo'lgan biror bir shakl o'tadi. Albatta qabul qiluvchi til bunday grammatik unsumni o'zga tildan osongina qabul qilmaydi va bu turdagi o'zlashuv ikki til jamoalari o'rtasida uzoq muddatli va uzluksiz yoki mustahkam madaniy, siyosiy va iqtisodiy aloqalarni talab qiladi. Bu turdagi o'zlashmalar fors tilida sanoqli va asosan arab tilidan kirgan. Ulardan biri otlarning siniq ko'plik formasi yoki ko'plik qo'shimchalaridir:

shaxs/	شخص اشخاص	kitob/	کتاب کتب
shaxslar		kitoblar	
kishi/	فرد افراد	shoir/	شاعر شعرا
kishilar		shoirilar	
mulk/	ملک املاک	ruh/	روح ارواح
mulklar		ruhlar	
bola/bo-	طفل اطفال	daftar/	دفتر دفاتر
lalar		daftarlar	

Bunday otlar huddi arab tili singari fors tilida ham ko'plik shaklda qo'llaniladi. Shuningdek, arabiy bo'lmagan so'zlarda ham siniq formada ko'plik yasalishi mumkin.

turk/	ترک اتراک	maydon/	میدان میادین
turklar		maydonlar	

Biroq bunday soʻzlar arab tilining oʻzida ham siniq koʻplik formasiga ega.

Kalkalash. Maʼlumki, *kalkash* deb boshqa til lugʻaviy birligidan ona tili vositalari asosida nusxa koʻchirish (tarjima qilish) natijasida soʻz, atama yoki birikmalar yuzaga kelishiga aytiladi. Fors tili lugʻat tarkibida kalkalarning bir necha turlari uchraydi. Ayniqsa, oxirgi yillarda, purizm sababli kalkalash orqali begona soʻzlarni fors tiliga oʻzlashtirish keng tarqalmoqda.

kartoshka	pomme de terre	de <i>sibzamini</i>	سیب زمینی
havo	va air-to-air	<i>havā be havā</i>	هوا به هوا
indikator	indicator	<i>c e r ā γ - e</i>	چراغ راهنما
harf	teruv-chi	<i>māšinnavis</i>	ماشین نویس
tasvirchi	film- taker	<i>filmbardār</i>	فیلم بردار
samolyot	aero plan	<i>havāpeyma</i>	هواپیما
fazogir	space man	<i>fazānavard</i>	فضا نور
temir yoʻl	rail way	<i>rāhāhan</i>	راه آهن

XULOSA

Chet tillardan leksik birliklarning oʻzlashishi mexanik jarayon emas, balki tillarning taraqqiyotiga bogʻliq va deyarli barcha tillarga xosdir. Buning ortidan tillarning leksik boyligi yanada ortadi. Fors tili oʻzining koʻp asrlik taraqqiyoti davomida lugʻat tarkibi turli xil oʻzlashmalar bilan toʻldi. Hozirda ham bu jarayon fan va texnologiyalarning rivojlanishi, chegara bilmas ommaviy axborot vositalari va media mahsulotlarining kirib kelishi ortidan davom etmoqda. Shu bilan parallel ravishda, bu oʻzlashmalarning kirib kelishini jilovlashga ham harakatlar izchil davom etmoqda.

ADABIYOTLAR

1. Hashemi, Eftekhari Sadat, et al. "Phonological adaptation of Arabic loan words in Persian: Consonants." *International Journal and Humanities and Social Science* 4.6 (2014): 1.
2. Ўзбек тили лексикологияси. – Тошкент: Фан, 1981. – 312 б.
3. Жуманиёзов О. Ўзбек тилидаги герман тиллари ўзлашмалари. – Тошкент: Фан, 1987. – 103 б.
4. Чэнь Ю. Иноязычные заимствования в современном русском языке//*Science for Education Today*. – 2015. – №. 4 (26).
5. Ярцева В. Н. и др. Лингвистический энциклопедический словарь. – Советская энциклопедия, 1990.
6. Kurnianingsih E. I. A Study of English-Indonesian Borrowing Words in Daily Need Products : дис. – Universitas Muhammadiyah Surakarta, 2010.
7. Navabzadeh Shafi'i, Sepideh. "An Investigation of Changes in Meaning and Application of French Loan-words in Persian." *Language Science* 2.3 (2014): 107-128.
8. Белгородский Н.А. Современная персидская лексика // *Языковые проблемы почислительным*. – Л., 1927. – С. 26.
9. Жирков Л.И. Персидский язык. Элементарная грамматика. – М.: УРСС, 2008..
10. Овчинникова И. К. К вопросу об удельном весе иноязычных заимствований в лексике современного литературного персидского языка // *Вопросы лексики*. М. – 1971.
11. Куранбеков, А. «Проблемы формирования научно-технической терминологии в современном персидском языке.» *Вопросы филологии*. 22.14 (2003): 16-18.
12. Paraskiewicz, Kinga. "English loanwords in new Persian." *Folia Orientalia* 52 (2015).
13. Mohamadi F. A. The kinds of borrowing in Persian // *Iranian Journal of Information processing and Management*. – 2003. – Т. 18. – №. 3. – С. 71-74.
14. Djafarov, B., & Arifdjanov, Z. (2021). ISSUES IN SEMANTIC STUDY OF TURKIC LOANWORDS IN PERSIAN. *Theoretical & Applied Science*, (6), 350-352.
15. Arifdjanov, Z. T. (2021). VARIANTS OF SIMPLE VERB ن تساوخ. *Theoretical & Applied Science*, (6), 418-420.